

## NOLISONIY MULOQOT ORQALI O'QUVCHILARNI AQLIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ravshanova Ra'no Xandamovna  
NDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi  
katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

## DEVELOPMENT OF STUDENTS' MENTAL ACTIVITY THROUGH INFORMAL COMMUNICATION

Ravshanova Rano Khandamovna,  
NSPI, senior lecturer of the department  
"Primary education", (PhD)

## РАЗВИТИЕ УМСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ НЕФОРМАЛЬНОЕ ОБЩЕНИЕ

**Равшанова Раёна Хандамовна**  
**НГПИ, старший преподаватель кафедры**  
**«Начальное образование», кандидат философских наук**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nolisoniy muloqotning o'quvchilarining aqliy faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan. O'quvchilarining muloqot ko'nikmalarini rivojlanirishda noverbal (so'zsiz) aloqalarning qanday ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilingan hamda tana tili, yuz ifodalari, qo'l harakatlari va boshqa noverbal vositalar orqali o'quvchilarining diqqatini jamlash, ijodiy fikrlash, empatiya va muloqotda samarali ishtirok qilish kabi aqliy ko'nikmalarini rivojlanirish usullari tahlil qilingan va nolisoniy muloqotning o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini va muammolarni ifodalashda qanday yordam berishini misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so'z:** nolisoniy muloqot, aqliy faoliyat, lisoniy birliliklar, muloqot usullari, kreativ fikrlash, og'zaki nutqni rivojlanishi.

**Annotation:** This article is devoted to analyzing the influence of non-verbal communication on students' mental activity. The importance of non-verbal communication in developing students' communication skills is analysed, which effectively influences students' concentration, creative thinking, empathy and communication through body language, facial expressions, hand movements and other non-verbal means. Analyses ways of developing mental skills such as participation and illustrates examples of how non-verbal communication helps students express their feelings, thoughts and concerns.

**Key words:** Nonverbal communication, mental activity, language units, ways of communication, creative thinking, oral speech development.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу влияния невербального общения на умственную деятельность студентов. Проанализировано значение невербального общения в развитии коммуникативных навыков учащихся, которое эффективно влияет на концентрацию учащихся, творческое мышление, эмпатию и общение посредством языка тела, мимики, движений рук и других невербальных средств. Анализируются способы развития умственных навыков, таких как участие, и иллюстрируются примеры того, как невербальное общение помогает учащимся выражать свои чувства, мысли и проблемы.

**Ключевые слова:** невербальное общение, умственная деятельность, языковые единицы, способы общения, творческое мышление, развитие устной речи.



<https://orcid.org/0009-0005-3465-359X>

Og‘zaki muloqot orqali o‘quvchilarni aqliy faoliyatini rivojlantirish bu ta’lim jarayonining ajralmas qismidir va o‘quvchilarni nafaqat bilim olish, balki fikrlash, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda lisoniy va nolisoniy muloqot alohida o‘rin tutadi.

Tilshunos olim Sh.Safarov “Muloqot – murakkab ko‘rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo‘ladi va ushbu tuzilmalar strukturasida lisoniy tafakkur faoliyatining “iz”lari saqlanadi. Ammo ushbu “iz”larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero, muloqot birligi – matnning tarkib topishida til tizimining barcha elementlari inson ongida tug‘iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar. Bundan tashqari, muloqot matnining shakllantirilishida nolisoniy birliklarning ham ishtirok etishini unutmaslik lozim”, - deb ta’kidlaydi.<sup>1</sup>

Nolisoniy muloqotning tadqiq qilinishida quyidagi asosiy muammolar: yuz, qiyofa imo-ishoralari (mimika), tana harakatlari, ishoralari va tana tili tarixini o‘rganish, yuz ifodalari, turli tana a’zolari, ko‘zlarning harakati yordamida insonning turli ruhiy holatlarini ifodalash hamda uni nazorat qilish imkoniyatlari o‘ta qiziqarlidir.

“Kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma’lum axborotni uzatish vositalaridan bo‘lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralari va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanalishini aytib, ishoralari, mimika, ovozdagi turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-arahashuv vazifasini bajarishdan qat’i nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita vazifasini o‘tashini ta’kidlagan edi.<sup>2</sup>

Tashqi moddiy obyektlarni tavsiflovchi obyektiv bilimlardan farqli o‘larоq, subyektiv bilimlar aniq bir insonning ichki obrazlar olamini tavsiflaydi.

Odamlar bilimning ushbu ikki turini bevosita tabiiy til yordamida, o‘ta past darajada nolisoniy muloqot

yordamida egallaydi. Insonning ekstralengistik subyektiv bilimlari uning turli axborotlarni qabul qilishiga asoslanadi va ushbu axborotning inson tomonidan shaxsan tahlil qilinishi orqali shakllanib boraveradi”<sup>3</sup>.

Lisoniy muloqot – bu gapirish, tinglash, yozish va o‘qish orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiya turi bo‘lsa, nolisoniy muloqot esa tananing, yuz ifodalarining va boshqa noverbal harakatlarning yordamida amalga oshiriladi. Ikki turdagи muloqot usullari o‘quvchilarni nafaqat bilim olish jarayonida, balki ularning aqliy faoliyatini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Til birliklaridan foydalanish ko‘p hollarda nolisoniy ijtimoiy-ruhiy (sotsial-psixik) tomonlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, tilni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganuvchi sotsial tilshunoslikdan (ijtimoiy tilshunoslikdan) farqli o‘larоq, lisoniy birliklarning nutqda yashash shart-sharoitlarini o‘rganuvchi maxsus fan - lingvistikaning yangi sohasi sotsiolingvistika shakllandi.<sup>4</sup> O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab sotsiolingvistika g‘arb tilshunosligida yetakchi o‘rin egallay boshladи.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar lisoniy birliklarni qo‘llash nafaqat nutq sharoiti, vositasi va hokazo kabi ijtimoiy hodisalar bilan, balki har bir xalq, millat, hatto, ijtimoiy guruh yoki toifa uchun odat tusiga kirgan qator urf-odatlar, rasm-rusumlar, ya’ni etnografik tomonlar bilan aloqador ekanligini ko‘rsatdi. Chunonchi, biz birovga salom berar ekanmiz odob nuqtai nazaridan qo‘lni ko‘ksimizga qo‘yib, boshni sal egib, ta’zimga yaqin harakat qilib salomlashamiz. Bu – o‘zbek urf-odati. Shunda bu nolisoniy, mohiyatan etnik-etnografik tamoyillar bilan birga, albatta, “Assalomu alaykum!” lisoniy iborasi ham ishlatalishi zarur. Bosh kiyimini yechib salomlashish rus xalqiga xos, hind xalqi esa qo‘l kaftlarini bir-biriga jipslashtirgan holda salomlashadi. Hatto, o‘zbeklarning o‘zining ichida turli toifa va guruhlarning bir-biri bilan salomlashishi jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalar, nutqiy shtamplar, harakat va holatlar bir xil

<sup>1</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – B. 279.

<sup>2</sup> Saidxonov M. Aloqa-arahashuv va imo-ishoralari. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 3.

<sup>3</sup> Соболь Е.Ю. Невербальные компоненты текстовой информации: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009. – С. 12.

<sup>4</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. Гл.ред. В.Н.Ярцева. - М.: Сов. Энциклопедия, 1990. 686 с.

emas. Bularni hisobga olish esa, nutq odobi uchun juda zarurdir.<sup>5</sup>

Masalan: Mehmonlar o‘tirgan xonaga madaniyatli kishining kirib, salom berish holatini kuzatadigan bo‘lsak, eshikdan qaddini sal eggan, qadamlarini maydalagan holda, o‘ng qo‘lini chap ko‘ksi ustiga qo‘yib, boshini egib, yengilgina ta’zim bilan “Assalomu alaykum” deydi. Bu yerda tasvirlangan har bir holat muloqot uchun ahamiyatli, qo‘lni qorin ustiga qo‘yish bilan qo‘lni chap ko‘krak usti va o‘ng ko‘krak ustiga qo‘yish yoki ikki qo‘lni ko‘ksiga qo‘yishning har biri muloqot jarayoni bilan bogliqdir. Tilshunos muloqot jarayonining mana shunday murakkab serqirra birligidan o‘zining tadqiq manbai sifatida talaffuz etishi, yozishi mumkin bo‘lgan “Assalomu alaykum”ni ajratib oldi va uni asrlar davomida o‘nlab jihatlardan tadqiqu tahlil qilib kelmoqda.

Tafakkur voqelikning ongli aks etish jarayoni, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali fikr vujudga keladi. Fikrlash faoliyati esa nutq holatida namoyon bo‘ladi. Demak, o‘quvchi o‘z tafakkurini rivojlantirmay turib, og‘zaki va yozma nutqni egallay olmaydi.<sup>6</sup>

#### **Nolisoniy muloqotning ahamiyati o‘quvchilarни og‘zaki nutqini rivojlantirishda kata ahamiyatga ega jumladan;**

**Hissiy ifodalar:** Nolisoniy muloqot odamlarning ichki hissiyotlarini, niyatlarini va hiss tuyg‘ularini aniqroq va samaraliroq ifodalashga yordam beradi. Ko‘pincha so‘zlardan ko‘ra yuz ifodalari yoki tana tili hissiyotlarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

**Tushunishni yaxshilash:** Ba’zan so‘zlar o‘zgarishi mumkin yoki noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Nolisoniy muloqot bu noaniqliklarni bartaraf etishga yordam beradi, chunki tana tili va ovoz tonali ko‘pincha so‘zlarga qaraganda aniqroq ma'lumot beradi.

**Aloqa samaradorligini oshirish:** So‘zlarning tarkibi va mazmuni muhim bo‘lsa-da, odamlar o‘z his-tuyg‘ularini va niyatlarini ko‘pincha nolisoniya vositalar orqali tushuntiradilar. Nolisoniya muloqot bu jarayonni samarali qilishga yordam beradi.

**Ijtimoiy aloqalar:** Nolisoniy muloqot ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Tana tili va yuz ifodalari odamlar orasidagi ishonchni yaratadi, munosabatlarni rivojlantiradi va yomon tushunishlarning oldini oladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning ovozini qanday ishlatishni o‘rgatish orqali ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi. Agar o‘quvchi muhim bir masalani izohlayotganida ovozini balandlashtirsa, bu diqqatni jalb qilish va muhim ma'lumotni taqdim etish usuli bo‘lishi mumkin. Ovozning past va ohangdor bo‘lishi esa, masalan, ba’zi noaniqliklarni yoki shubhalarni ifodalashda yordam beradi. Bu orqali o‘quvchilar his-tuyg‘ularni aniqlash va shaxsiy fikrlarni ifodalashni o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda nolisoniy muloqot o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib, ularning fikrlash, hiss tuyg‘ularni anglash va ularga javob berish, muloqotda bo‘lish kabi qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Tana tili, ovoz, yuz ifodalari, masoфа kabi nolisoniya muloqot elementlaridan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini samarali ifodalash, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – B. 279.
2. Saidxonov M. Aloqa-arahashuv va imishoralar. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 3.
3. Соболь Е.Ю. Невербальные компоненты текстовой информации: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009. – С. 12.
4. Лингвистический энциклопедический словарь. Гл.ред. В.Н.Ярцева. - М.: Сов. Энциклопедия, 1990. 686 с.
5. Safarov Sh., Toirova G., Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamDChTI nashri, 2007. – 39 bet.
6. A.G‘ulomov, M. Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova. Ona tili o‘qitish metodikasi - T: Fan va texnologiya. 2012.-380 bet.

<sup>5</sup> Safarov Sh., Toirova G., Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamDChTI nashri, 2007. – 39 bet.

<sup>6</sup> A.G‘ulomov, M. Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova. Ona tili o‘qitish metodikasi -T: “Fan va texnologiya” 2012 380 bet